

O'ZBEK SO'MI KURSI VA UNING TASHQI SAVDOGA TA'SIRI (EKSPORT VA IMPORT TAHLILI MISOLIDA)

Xoliqnazarov Muzaffarbek Bunyojon o'g'li

Toshkent Bank-moliya akademiyasi,

Iqtisodiyotni monetar tartibga solish yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16875386>

Annotatsiya. O'zbekiston iqtisodiyotida milliy valyuta – so'mning kursi tashqi savdo jarayonlariga muhim ta'sir ko'rsatadi. So'mning qadrsizlanishi yoki mustahkamlanishi eksport va import hajmidagi o'zgarishlar orqali mamlakat iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu maqolada so'm kursi dinamikasi va uning eksport-import operatsiyalariga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbek so'mi, valyuta kursi, devalvatsiya, tashqi savdo, eksport, import, valyuta siyosati, makroiqtisodiy barqarorlik, kurs siyosati, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya.

ВЛИЯНИЕ КУРСА УЗБЕКСКОГО СУМА НА ВНЕШНЮЮ ТОРГОВЛЮ (НА ПРИМЕРЕ АНАЛИЗА ЭКСПОРТА И ИМПОРТА)

Аннотация. В экономике Узбекистана национальная валюта “сум” играет важную роль в формировании процессов внешней торговли. Обесценивание или укрепление сума напрямую влияет на экономическую стабильность страны через изменения объёмов экспорта и импорта. В данной статье анализируются динамика валютного курса сума и его влияние на экспортно-импортные операции.

Ключевые слова: Узбекский сум, валютный курс, девальвация, внешняя торговля, экспорт, импорт, валютная политика, макроэкономическая стабильность, политика валютного курса, экономический рост, инфляция.

THE IMPACT OF THE UZBEK SUM EXCHANGE RATE ON FOREIGN TRADE (A CASE STUDY OF EXPORT AND IMPORT ANALYSIS)

Annotation. In Uzbekistan's economy, the national currency “sum” plays a significant role in shaping foreign trade processes. The depreciation or appreciation of the sum directly affects the country's economic stability through changes in export and import volumes. This article analyzes the dynamics of the sum exchange rate and its impact on export-import operations.

Keywords: Uzbek sum, exchange rate, devaluation, foreign trade, export, import, currency policy, macroeconomic stability, exchange rate policy, economic growth, inflation.

Kirish. O'zbekistonda 2017 yildan keyin amalga oshirilgan valyutani erkinlashtirish islohotlari natijasida valyuta kursi bozor mexanizmlariga bog'liq holda shakllana boshladi. Bu o'zgarishlar tashqi savdo balansini qayta shakllantirishga sabab bo'ldi. Ayniqsa, u birinchi navbatda eksportga ta'sir ko'rsatib, valyuta kursi pasayishi natijasida eksportyorlar tashqi bozorda raqobatbardoshlikka ega bo'ldi. Milliy mahsulotlar arzonroq narxda taklif qilingani sababli eksport hajmi ko'paydi. Ikkinchi navbatda esa importga ham ta'sir etib, so'mning qadrsizlanishi import tovarlarining narxi oshishiga sabab bo'ldi. Bu esa ichki bozorda narx-navoning ko'tarilishiga va inflyatsiya bosimiga olib keldi. Shu bilan birga, import o'rnini bosuvchi mahalliy ishlab chiqarishga rag'bat ortdi. Bundan ko'rinadiki, keyingi yillarda ham O'zbekiston iqtisodiyotida so'm kursi va uning tashqi savdoga ta'sirini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy qism. O'zbekiston iqtisodiyotida valyuta kursi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanib, tashqi savdoga, ayniqsa eksport va import jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Milliy valutaning qadrsizlanishi (devalvatsiya) yoki qadrlashishi (revalvatsiya) mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatidagi samaradorlik uchun muhim hisoblanadi. Milliy valyuta (so'm kursi) — bu milliy valutaning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan bahosi bo'lib, uning qadrsizlanishi yoki mustahkamlanishi tashqi savdoga quyidagicha ta'sir qiladi:

- Birinchidan, eksport uchun so'm qadrsizlansa, eksportyorlar foyda ko'radi, chunki ular xorijiy valutada daromad oladi va uni ko'proq so'mga almashtiradi.
- Ikkinchidan, import uchun so'm qadrsizlansa, import mahsulotlari qimmatlashadi, chunki xorijiy valyutani sotib olish uchun ko'proq so'm talab qilinadi.

Keyingi yillarda respublika iqtisodiyotida so'm ancha liberallashtirildi. Masalan, 2017 yilda so'm liberallashtirilib, 1 AQSh dollari 4210 so'mdan 8100 so'mgacha ko'tarilgan. Bu jarayondan keyin eksport hajmi esa 2018 yilda 18% ga o'sishi kuzatilgan. Importda esa aksincha jarayon kuzatilib, so'm qadrsizlanganda xorijdan tovar olib kirish qimmatlashdi. Bu mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratdi, biroq qisqa muddatda inflyatsiya xavfini ham kuchaytirdi. 2018–2020 yillarda so'mning pasayishi natijasida transport vositalari va maishiy texnika import narxlari 20–30% ga oshib ketdi.

Yuqoridagi fikrlar asosida O'zbekiston so'mining kursi va tashqi savdoga ta'sirini eksport va import misolida 2015–2025 yillardagi o'zgarishini tahlil qilib ko'raylik. Buni quyidagi yo'l bilan aniqlash mumkin, ya'ni:

1. 2015, 2020 va 2025 yillarda so'mning dollarga nisbatan kursini topamiz (1-jadvalga qarang).
2. Har yili eksport va import hajmi qanday o'zgarganini ko'rsatamiz.
3. O'zbek so'mi qiymatining tushishi yoki oshishi eksport va importga qanday ta'sir qilganligini ish so'nggida tahlil qilamiz.

1-jadval

O'zbekistonda so'm kursi va eksport-import hajmining o'zgarishi (2015-2025)

Yil	1 AQSh dollari uchun so'm kursi	Eksport (mlrd. \$)	Import (mlrd. \$)
2015	~2 600 so'm	~9,5 mlrd	~12,0 mlrd
2020	~10 200 so'm	~15,1 mlrd	~21,2 mlrd
2025	~13 000 so'm (prognoz)	~22,0 mlrd (prognoz)	~27,0 mlrd (prognoz)

(Eslatma: 2025 yil uchun ma'lumotlar taxminiy prognoz asosida olindi)

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2015-yildan 2025-yilgacha O'zbek so'mi sezilarli darajada qadrsizlangan. 2015-yilda 1 AQSh dollari ~2 600 so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda bu kurs ~13 000 so'mga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu 10 yil ichida so'mning taxminan 4,8 baravar qadrsizlanishini bildiradi. Eksport hajmi 2015-yildagi ~9,5 mlrd dollardan 2025-yilda ~22,0 mlrd dollarga oshgan. Bu iqtisodiyotda ijobiy tendensiyanı anglatadi. Import hajmi esa 2015-yildagi ~12 mlrd dollardan 2025-yilda ~27 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda. Bu ishlab chiqarish va iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyoj oshganini ko'rsatadi.

So'mning qadrsizlanishi eksportni rag'batlantirib, O'zbekiston uchun paxta, oltin, tabiiy

gaz va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportchisi sifatida raqobatbardoshligini oshiradi. Eksport mahsulotlarining xalqaro bozordagi narxi past saqlansa ham, so'mning qadrsizlanishi natijasida esa eksportdan tushadigan daromad so'mda ortishi mumkin bo'ladi.

Tahlillar ko'rsatmoqda, valyuta kursidagi o'zgarishlar nafaqat tashqi savdoga, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy barqarorligiga ham ta'sir qilmoqda. Bunda markaziy bankning pul-kredit siyosati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, valyuta kursining dinamikasi tashqi savdo siyosatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida eksportni qo'llab-quvvatlash uchun valyuta kursining aniq va barqaror siyosati talab etiladi. 2015–2025 yillar oralig'ida O'zbekiston tashqi savdosi faollashgan, eksport va import hajmlari sezilarli darajada oshgan. So'm kursining qadrsizlanishi iqtisodiy islohotlar, inflyatsiya va tashqi bosimlar bilan bog'liq. Kelgusida eksport va import balansini yaxshilash, valyuta barqarorligini ta'minlash hamda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish asosiy maqsadlardan bo'lishi lozim.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2015–2024). Valyuta kurslari arxivi. <https://cbu.uz>
2. Davlat statistika qo'mitasi. (2015–2024). Tashqi savdo statistik ma'lumotlari. <https://stat.uz>
3. Jahon banki. (2023). Uzbekistan Economic Update: Structural Transformation and Growth Opportunities. Washington, D.C.: World Bank Group.
4. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF). (2022). Republic of Uzbekistan: Staff Report for the Article IV Consultation. IMF Country Report No. 22/218.
5. Omonov, S. (2021). "Milliy valyuta kursi va tashqi savdo o'zgarishlarining o'zaro bog'liqligi". Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali, №6, 87–93.
6. Karimov, M., & Yoqubov, B. (2020). "O'zbekiston tashqi savdo siyosati va valyuta bozorining liberallasuvi". Iqtisodiy tadqiqotlar, 12(3), 45–52.
7. Krugman, P., & Obstfeld, M. (2018). International Economics: Theory and Policy. 11th ed. Pearson Education.
8. Mishkin, F.S. (2019). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 12th ed. Pearson.